KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 10 (540) 2025-YIL, 15-MART

MUNOSABAT

KORRUPSIYA - JAMIYAT TANASIDAGI SARATON

Butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishida ma'lum qildi.

Shu yil 5-mart kuni Prezident raisligida o‘tkazilgan mazkur yig‘ilishida sohadagi kamchiliklar tanqid qilinib, ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston yetakchisi jamoatchilikka murojaat qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvarning vijdon ishi ekanini ta'kidladi.

"Hammamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar - umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak", - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda qonunchilikning takomillashtirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha alohida davlat organining tashkil etilishi, vazirlik va idoralar faoliyatining raqamlashtirilishi natijasida so‘nggi 7-8-yilda bu yo‘nalishda muayyan ijobiy natijalarga erishildi.

Korrupsiya masalasi jamiyat muhokamasiga olib chiqilib, OAVning roli oshirildi. Natijada xalqaro ochiqlik reytingida O‘zbekiston 138 pog‘ona yuqorilab, Markaziy Osiyoda birinchi, dunyoda 30 o‘ringa ko‘tarildi.

Prezident raisligidagi yig‘ilishda davlat rahbari 55 ta aniq maqsadga yo‘naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdi.

Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qarorlar ishlab chiqiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, Milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari kuchayadi.

Deklaratsiyalash, noqonuniy boylik orttirishga oid yangi tartiblar kiritilishi natijasida korrupsiya omillari cheklanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, tashkilotlardagi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati kuchaytiriladi.

Maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazirlik, idoralar rahbarlari mas'uliyati oshiriladi.

Davlat xizmatlari darajasini aholi baholaydigan tizim qilinadi, eng yomon ko‘rsatkichga ega soha rahbarlari bo‘yicha chora ko‘riladi.

Nazorat inspeksiyalari mustaqilligi oshiriladi.

Yirik investitsiya loyihalarida, auksionlarda korrupsiyaning oldini oluvchi mexanizmlar joriy etiladi.

Davlat xaridlari tartibga solinishi, to‘g‘ridan to‘g‘ri xaridlar cheklanishi hisobiga byudjet mablag‘lari tejalishi ta'minlanadi.

Davlat pulini maqsadsiz sarflash holatlariga barham beriladi.

Sektorlardan ozod bo‘lgan kuch va vositalar jinoyatchilikka qarshi kurashishga safarbar etilib, jamiyatda barqarorlik muhiti va odamlarning roziligi ortadi.

Noqonuniy tekshiruvlar ustidan prokuror nazorati kuchaytirilishi orqali joylarda biznes va investitsiya muhiti yaxshilanadi.

Erishilgan natijalar xalqaro reytinglarda mamlakat o‘rnini yaxshilaydi.

Parlament kiberkorrupsiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida xalqaro tajribani o‘rganib, maxsus qonunchilik asoslarini ishlab chiqish ustida ishlashi lozimligi qayd etildi.

M.ARTIQOVA,
Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi a'zosi.

YANGI ANDIJONDA YANA BIR QULAYLIK YARATILDI

Andijon tumanida "Yangi Andijon shahri" loyihasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar avj pallaga kirdi. Shu kungacha yuzlab aholi yangi uylarga ko‘chib o‘tdi. Ularga qulay sharoit yaratish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o‘rta ta'lim maktabi, oilaviy poliklinika, ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Yangi qurib bitkazilgan suv taqsimlash inshooti esa soatiga 420 metr kub ichimlik suvini aholiga yetkazib bermoqda.



- Inshootimiz zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlangan, - deydi "Andijon suv ta'minoti" AJ bosh muhandisi Humoyun Alimov. - Barcha jarayonlar maxsus dastur asosida kompyuter yordamida amalga oshiriladi. Bu ta'minotning uzluksizligini, iste'molchilarga o‘z vaqtida sifatli xizmat ko‘rsatishni kafolatlaydi. "Yangi Andijon shahri" loyihasi o‘n yil muddatga mo‘ljallangan bo‘lib, ayni paytda birinchi bosqichi amalga oshirilmoqda. Shuni inobatga olgan holda inshootda zaxira maydoni tashkil etilgan, ehtiyoj tug‘ilganda uni ishga tushirish imkoniyati mavjud.

2024-yilda 33 milliard so‘mlik loyiha asosida "Ekspress bunyodkor servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qurilishi boshlangan ushbu inshootning sig‘imi 4 ming metr kubdan iborat.

S.HUSANOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

BUZILAYOTGAN OILANI YARASHTIRISH - ASOSIY MUDDAO

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 76-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O‘zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

Huquqiy demokratik davlatlarning huquqiy tajribasi va amaliyotidan ma'lumki, davlatning asosiy qomusi hisoblangan Konstitutsiyada davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalari tartibga solinadi.

Bosh qomusimizning 76-moddasida oila va nikoh munosabatlarining huquqiy jihatdan tartibga solinishi jamiyatda oila institutining naqadar muhimligidan, oila davlatning to‘laqonli muhofazasida ekanidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 1-moddasiga ko‘ra, oila to‘g‘risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a'zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 26-moddasi 1-qismining 1-xatboshisiga ko‘ra, fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to‘g‘risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo‘yicha ishlar, agar taraflardan hech bo‘lmaganda bittasi fuqaro bo‘lsa, bundan qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollar mustasno, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqlidir.

Bugungi kunda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘riladigan asosiy ishlardan biri oila munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar hisoblanadi. Oila munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarning asosiy qismini esa nikohdan ajratishga oid ishlar tashkil qiladi.

Ushbu ishlarni ko‘rishda sudlarning asosiy e'tibori oilani saqlab qolish, voyaga yetmagan farzandlarni tirik yetim bo‘lishini oldini olishga qaratilgan. Ushbu maqsadda sudlar tomonidan tumandagi Oila va xotin-qizlar bo‘limi hamda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 380-son Qarori bilan 2-ilovada tasdiqlangan "Fuqarolar yig‘inining komissiyalari to‘g‘risida"gi Nizomga ko‘ra, fuqarolar yig‘ini huzurida fuqarolar yig‘inining oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Mazkur nizomning 9-bandiga muvofiq oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi a'zolari fuqarolar yig‘ini majlisi (fuqarolar vakillari yig‘ilishi) tomonidan fuqarolar yig‘ini raisi saylovidan so‘ng bir oy ichida 8 - 12 nafar a'zodan iborat tarkibda 5-yil muddatga saylanadi.

Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi tarkibiga mahalla xotin-qizlar faoli, keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchi, imom-xatib, ta'lim muassasalari rahbarlari yoki ularning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, oilaviy shifokorlik punkti (oilaviy poliklinika) vakili, psixologlar, hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, namunali oila boshliqlari, aholi o‘rtasida obro‘-e'tiborga ega bo‘lgan hamda o‘zining tarbiyaviy ta'sirini o‘tkaza oladigan mahalla faollari kiritilishi mumkin.

(Davomi 2-betda)

BUZILAYOTGAN OILANI YARASHTIRISH - ASOSIY MUDDAO

(Davomi. Boshi 1-betda)

Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasiga rahbarlik fuqarolar yig‘ini raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 41-moddasiga ko‘ra, agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.

Sudlar tomonidan Oila kodeksi 41-moddasida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lgandagina er-xotin nikohdan ajratiladi. Er-xotinning ajrashishi uchun jiddiy sabablar bo‘lmaganda yoki ular o‘rtasidagi kelishmovchilik arzimas sabablar bilan bog‘liq bo‘lsa, sud da'vogarning nikohdan ajratish haqidagi da'vosini rad etadi va shu bilan birga er-xotinni yarashtirish choralarini ko‘rish uchun xususiy ajrim chiqaradi.

Oila Kodeksi 40-moddasining 2-qismida sud ishning ko‘rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli ekanligi belgilangan.

Agar, er-xotin o‘rtasida nikohdan ajratish uchun jiddiy sabablar bo‘lsa, sud taraflarga yarashish uchun 6 oygacha muhlat tayinlab, ishni ko‘rishni keyinga qoldiradi. Ajrimning ko‘chirma nusxasi taraflarning yashash joyi bo‘yicha oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasiga yuboriladi.

Davlat tomonidan oilani saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlardan yana biri bu fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tizimida oila sudyalarining tashkil etilishidir.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-401-son Qarori bilan 2024-yil 1-fevraldan mavjud shtat birliklari doirasida tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar, Namangan tumanlararo va Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudlarining ikki nafardan sudyasini oilaviy nizolarni ko‘rish bo‘yicha ixtisoslashtirgan holda ushbu sudlarda "Oila sudyalari" tashkil etildi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad sudyalarni oilaviy nizolarni ko‘rish bo‘yicha ixtisoslashtirgan holda ushbu sudyalar tomonidan ishlarni ko‘rishda asosiy e'tiborni oilalarni saqlab qolishga qaratishni ta'minlashdan iboratdir. Ushbu ishlar bugungi kunda o‘z samarasini berib kelmoqda.

N.TOJIBOYEV,
Fuqarolik ishlari bo‘yicha Asaka tumanlararo sudining sudyasi.

Tadbirkorlik

HOVLIDAGI XAZINA



Farg‘ona vodiysida har bir qarich yerning qadri baland. Boisi, fe'li ham tabiatiga mos hamyurtlarimiz yer bilan "tillashish"ning hadisini olgan. Ekin ekkani joyi qolmasa do‘ppisini to‘ntarib, unga bir hovuch tuproqni joylab, bir juft urug‘ qadab, kuzda hosilini olish ularga xos fazilat.

Xuddi shunday holatni Andijon shahrida kuzatgan edim. Viloyat markazidagi atigi bir sotix maydonga ega mo‘jazgina xonadon sohibi beton qoplamali sahnga minglab tuvakchalarni joylab, pomidor urug‘i qadaydi. Erta bahorda ularni sotib, qo‘shimcha daromad oladi. Bunga ham qanoat hosil qilmay, yuz dona tuvakka ko‘chat ekib, parvarishlab, hosil yetishtiradi. Kuzda mevasini sotsa kerakda, deb o‘ylayotgandirsiz? Yo‘q, ularni tuzlab, qishda sotadi. Qarabsizki, bir yilda o‘rtacha 10 mln. so‘mgacha mablag‘ ishlab topadi. Bu foydalanilmay turgan beton ustida ishlab topilgan daromad. Agar uning tomorqasida yer maydoni bo‘lsami...

Bu borada Marhamat tumani aholisi ham andijonliklardan aslo qolishmaydi. Hudud uzumchilikka ixtisoslashganligi bois har bir hovlida so‘ritoklar mavjud. Tomorqa egalari "Uzumini yeng-u bog‘ini surishtirmang", deya ko‘krak kerib o‘tirsa ham bo‘ladi-yu, biroq kaftdek yer ham bo‘sh qolmasin, deb barcha kuchini mehnatga sarflashadi. Buning uchun tok ostidagi yerga ham poliz ekinlarini ekishib, bir yilda uch martagacha hosil olishadi.

- Fevral oyida yerga kartoshka urug‘ini qadadik, -deydi Bahoriston ko‘chasidagi xonadonlardan birida yashovchi Zumradxon Hakimova. - Tok yaproq yozib, ostiga salqini tushguncha kartoshka yetilib qoladi. Uning o‘rniga bulg‘or qalampiri bilan baqlajon ekamiz. Boisi, bu ikki ekinga tok ostidagi salqin kor qilmaydi. 4 sotix maydondan yil davomida 30 million so‘mgacha daromad olamiz. Muhimi, hosilni bozorga olib bormaymiz, xaridorlar uyimizdan olib ketishadi. Bir so‘z bilan aytganda, hovlidan ko‘chaga chiqmasdan pul ishlab topamiz.

Mahallada mingdan ziyod xonadonlar bor. Eng kam tomorqa maydoni 4 sotix, eng ko‘pi 10 sotixdan iborat. Undan oqilona foydalanish orqali har bir xonadon egasi bir yilda o‘rtacha 15-20 mln. so‘m qo‘shimcha daromad olish imkoniga ega.

- Yerga mehr bersang u seni boqadi, - deya suhbatga qo‘shildi "Boboxuroson" MFY raisi Tavakkal Shomurodov. - 4 sotix tomorqasi bor odamning aslida bo‘sh vaqti bo‘lmasligi kerak. Hovlidagi yumushlari orqali o‘zini o‘zi band qilayotgan mahalladoshlarimiz tomorqa bilangina cheklanib qolayotgani yo‘q. Axir, chorvachilikda ham yaxshigina tajriba bor. Issiqxonasida yil davomida qulupnaydan tortib bodringgacha hosil yetilib turadi. Tomorqa yer maydonlaridan foydalanishdagi imtiyozlar mahalladoshlarni yanada samaraliroq mehnat qilishga undadi. Ayniqsa, soliq tizimidagi manfaatdorlik tufayli daromadlari ortyapti. Yaratilayotgan sharoitlar sababli joriy yilning o‘zida 74 nafar fuqarolar o‘z-o‘zini band qilish orqali daromad manbaiga yo‘naltirildi. 36 nafar mahalladoshlarimizga 5 mln. so‘mdan 33 mln. so‘mgacha kredit mablag‘i ajratilishi natijasida tadbirkorlik faoliyatini boshladi.

Dildoraxon Qoraboyeva oilaviy sharoitidan kelib chiqqan holda ijtimoiy reyestrda turardi. Mahalla yettiligi uning ichki imkoniyatlarini o‘rganib kredit mablag‘i ajratishga qaror qildi. Axir, salkam 10 sotixdan iborat tomorqa maydonidan unumli foydalansa nafaqat o‘zini, balki oila a'zolarini ham band qilishi mumkinda.

- Qo‘shnilarimiz bir qarich yerni ham bo‘sh qo‘ymay, undan yaxshigina daromad olishlarini ko‘rib, havas qilardim-u mablag‘im yo‘qligi uchun ular bilan bir safda mehnat qila olmayotgandim, - deydi u biz bilan suhbatda. - 30 mln. so‘m kredit mablag‘i ajratilgach, avvalo, mo‘jazgina issiqxona barpo etib, qulupnay ko‘chatini o‘tqazdim. Ochiq maydonga kartoshka urug‘ini qadadim. Bu borada tajribasizligimni hisobga olgan holda shu yilning o‘zida kamida 15 mln. so‘m daromad olishni ko‘zlab turibman.

Marhamatliklarning shijoati butun viloyat aholisiga ko‘chgan. Shu bois ular o‘tgan yili hovlisidagi tomorqaning o‘zidan 979 ming tonna hosil yig‘ib olishga erishdi. Joriy yilda bu ko‘rsatkich yanada ortadi. Negaki, mavjud 909 ta mahallaning 880 tasidagi 564 mingta aholi xonadonlarida ekin ekish mumkin bo‘lgan 25,6 ming gektar tomorqa yer maydoni mavjud bo‘lib, shundan 60 foizida bir yilda uch martagacha hosil olinadi. 2025-yilda yiliga ikki marta hosil oladigan xonadonlarning 225 tasini uch marta hosil olishga o‘tkaziladi. Buning natijasida hosil miqdori ortib, aholi daromadi kamida 30 foizga oshishi ko‘zda tutilgan.

Uzoqning bug‘doyidan yaqinning arpasi yaxshi, degan naql bor xalqimizda. Biroq bu ibora bugungi kunga kelib biroz ma'nosini yo‘qotgan chog‘i. Zero, shundoqqina hovlidagi tomorqadan olinadigan daromadning o‘zi katta xazina bilan bo‘ylashayotgan bugungi kunda arpa narxi ham sariq chaqa misoli go‘yo... Shu bois o‘z rizqini o‘zga yurtdan terayotgan aksariyat hamyurtlarimiz ona uyiga qaytmoqda.

- Xazinam oyoqlarim ostida ekan-u men bo‘lsa uni izlab qo‘shni davlatlarda yurgan ekanman, - deydi hazilomuz ohangda shu mahallada yashovchi Nabijon Usmonov. - Hududimizda tomorqadan foydalanish bo‘yicha to‘plangan boy tajriba tufayli uyimga qaytib keldim. Sababi, hisob-kitob qilib ko‘rsam, u yoqlarda ishlab topgan pulimni o‘z uyimda ishlab topish imkonim bor ekan. Bu ham bo‘lsa yurtimizda kambag‘allikdan farovonlik sari doirasidagi tashabbuslar natijasidir.

Mutaxassislarning fikricha, Ikkinchi jahon urushidan oldin mamlakatimiz yer maydonida gektaridan 12-15 sentnerdan hosil olingan. 1970-yillarga kelib bu ko‘rsatkich 40 sentnerga yetkazilgan. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lmagan, albatta! Uning zamirida katta mehnat, tajriba va ko‘nikma mavjud. Xuddi shuningdek, tomorqachilikda ham yangi bosqichga yuz tutilmoqdaki, qisqa muddatda u aholining haqiqiy xazina manbaiga aylanishi, shubhasiz.

Ç.MAMATQULOV,
"Adolat mezoni" muxbiri.

QASHSHOQLIKDAN BOYLIK, ZABUNLIKDAN BAXT SARI

YOXUD "OQ NILUFARLAR YURTIDA" KITOBINI O‘QIB

KITOBXON FIKRI

Finlandiya qanday qilib jahon namunasiga aylandi? Grigoriy Petrovning "Oq nilufarlar yurtida" asari ushbu savolimizga to‘laqonli javob beradi.

Finlandiya - noqulay geografik joylashuvi sabab o‘tmishda qashshoqlik va mustamlakachilikdan aziyat chekkan mamlakat. Yer osti va usti boyliklari yo‘qligi bois Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan vaqtlarda hududning iqtisoiy ahamiyati Qrim, Kavkaz va Turkiston kabi hududlarga nisbatan ancha past bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, Finlandiya bugungi kunda dunyoning eng baxtli mamlakati, ta'lim sohasida esa yetakchi o‘rinlardan birini egallab turibdi. Xo‘sh, bu qanday sodir bo‘ldi?

Yer yuzida yashash uchun deyarli imkoniyati yo‘q bo‘lgan xalqlarning rivojlanishi, xususan, Yaponiya, Singapur va Finlandiya kabi davlatlarning muvaffaqiyati ko‘pchilikni hayratga soladi. Finlandiya misolida, bu muvaffaqiyatning asosiy omili - milliy ma'rifat va ta'lim sohasidagi islohotlar ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayonda J.V.Snelman kabi millat ziyolilarining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Ular mamlakat rivojini chin dildan istashdi va shu maqsadda dadil harakat qilishdi. "Ziyoli bo‘lish modaga ko‘ra kiyinish degani emas. Ziyolilar jamiyatning miyasi hisoblanadilar. Xalq sizni yaxshi ta'lim olganingizdan so‘ng yuqori maosh olishga va kechqurun karta yoki domino stollarida o‘tirib, zavqlanishingiz uchun o‘qitmadi. Bunday qiladiganlar haqiqiy ziyolilar emas; ziyolari mog‘orlangan demakdir. Ziyolilarning vazifasi - jamiyatning aql-zakovati, vijdoni, irodasi va kuchini uyg‘otish va safarbar qilish. Siz dehqonlarga, ishchilarga va jamiyatning quyi qatlamidagilarga qanday qilib yaxshiroq yashashni va buning uchun nima qilish kerakligini o‘rgatishingiz kerak", - deydi Snellman.

"Qonunbuzarlikning eng katta o‘qituvchilari kimlar?" degan savolga javob berar ekanmiz, ko‘z oldimizga o‘sha qonunlarga rioya qilmaydigan davlat xizmatchilari keladi. Ular jamiyatni qonunga bo‘ysunmaslikka o‘rgatishadi. Shuning uchun ham J.V.Snellman "Finlandiya davlati nomidan sizdan iltimos qilaman: Siz qonunlarga rioya qilishga qasamyod qildingiz! Iltimos, xalqimizni qonuniy va adolatli bo‘lishga o‘rgating", deya murojaat qiladi.

Har yili BMT tomonidan e'lon qilinadigan "Dunyodagi baxtiyorlik hisoboti" nomli hisobotda Xelsinki dunyoning eng baxtli shahri sifatida qayd etilmoqda. Finlandiya davlati 2018-2020-yillar oralig‘ida uch yil ketma-ket dunyoning eng baxtli mamlakati deb e'lon qilingan.

Finlandiyaning nega bunchalar baxtli mamlakat ekanligini aniqlash uchun jamiyatning ba'zi odatlari o‘rganib chiqildi. Ulardan biriga ko‘ra Finlarning juda ko‘p kitob o‘qish odati ekan. Finlandiyada ko‘plab kutubxonalar mavjud. 2018-yilning 5-dekabrida ochilgan "Oodi" nomidagi kutubxona bir yil o‘tar-o‘tmas "Dunyoning eng yaxshi jamoat kutubxonasi" mukofotini oldi. Shuningdek, BMT tomonidan e'lon qilingan hisobotda Finlandiya xalqi dunyoning eng savodli va eng ko‘p kutubxonalarga tashrif buyuradigan xalq ekanligi ta'kidlangan.

Statistika ma'lumotlariga ko‘ra, 5,5 million aholisi bo‘lgan Finlandiyada kutubxonalardan yiliga 68 millionga yaqin kitob o‘qish uchun olinadi. Ularda "kitob o‘qib olim bo‘larmiding" degan qarashlar umuman yo‘q. Aksincha, kitobga barcha muammolarning yechimi sifatida qarashadi.

Darhaqiqat, har bir inson oliy ma'lumotli bo‘lishi shart emas. O‘z kasbining ustasiga aylanib ham jamiyatda o‘z o‘rnini topishi mumkin. Lekin har bir odam kitob o‘qishi kerak deb hisoblayman. Hech bo‘lmaganda kitob mutolaasi o‘z hayotingizni go‘zalroq qilishga yordam beradi.

Finlar ta'limni nafaqat bilim olish, balki millatni uyg‘otish, rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun vosita deb bildilar. O‘qituvchilarga berilgan erkinlik, ularning mas'uliyatini oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, o‘quvchilarga uy vazifalarining berilmasligi, maktabning asosiy vazifasi ta'lim berish ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

"Odatda, ishlamasdan yoki ishlab chiqarmasdan farovon hayot kechirish usullarini qidiradigan va topadigan Finlandiya tajribasi bizga bir haqiqatni isbotlaydi: millatning yuksalishi nafaqat tabiiy boyliklarga, balki ma'rifatga, ta'limga, insonlarga ishonchga va shaffoflikka bog‘liqdir. Bu o‘rinda, "Har bir millat o‘zi loyiq bo‘lgan boshqaruvga va boshqaruvchiga ega bo‘ladi" degan ibora juda o‘rinli. Demak, biz o‘zgarishni o‘zimizdan boshlashimiz, ma'rifatli jamiyat qurishga intilishimiz, ta'limga alohida e'tibor berishimiz va qonun ustuvorligini ta'minlashimiz zarur.

Bu kitobni shunchaki o‘qish mumkin emas, har bir so‘zini anglash, tahlil qilish va undan xulosa chiqarib, ta'lim tizimimizda qo‘llashga harakat qilishimiz kerak. Shunda biz ham Finlandiyadek muvaffaqiyatli va baxtli jamiyat qurishimiz mumkin.

Rossiyada bo‘lgani kabi, Yevropaning ba'zi mamlakatlarida ham jamoatchilikka ishonchsizlik muhiti hukm suradi. Shuning uchun nazoratchilarga nazoratchilar kerak bo‘ladi. Finlandiyada esa, jamiyatga ishonch muhiti hukmronlik qiladi. Ular nazoratga emas, balki insonlarga ishonishadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning hamjihat bo‘lishiga va rivojlanishiga yordam beradi.

Finlandiyada uysizlar umuman yo‘q. Barcha uysizlarga davlat uy qurib beradi. Buning uchun insonlar yillar davomida ishlab pul yig‘ib va boshlaridan oshgunga qadar qarzga botishga majbur emaslar. O‘qituvchilar darslarni o‘zlari istaganlaridek rejalashtiradilar va ularga hechkim uni yo buni qil deb aytmaydi. O‘quvchilarga uy vazifalari berilmaydi, chunki ular o‘qish joyi bu faqatgina maktab va o‘quvchilar maktabda o‘qishlari kerak deb hisoblaydilar. O‘qituvchilar qachonki magistrlikni tamomlasalar undan keyin malaka oshirishlarga jo‘natilgan holda dars berish huquqiga ega bo‘ladilar. Hech kim to‘rt yillik bakalavrdan keyin shunchaki dars o‘tib keta olmaydi. O‘qituvchilik Findlandiyada eng mas'uliyatli va sharafli kasbdir.

Finlandiya tajribasi bizga bir haqiqatni isbotlaydi: millatning yuksalishi nafaqat tabiiy boyliklarga, balki ma'rifatga, ta'limga, insonlarga ishonchga va shaffoflikka bog‘liqdir.

Mashhura JO‘RAQULOVA.

«NOTARIUS MASLAHATI» SAHIFASI

MUAYYAN HUDUDDA NOTARIUSLAR LAVOZIMLARINING SONINI BELGILASH TARTIBI QANDAY?

Notarial okrugda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar soni tegishli notarial okrugda notariuslar lavozimlarining belgilangan eng kam sonidan kam bo‘lgan taqdirda davlat notarial idorasi notariusi lavozimlari ta'sis etiladi.

Notarial okrugda notariuslar lavozimlarining eng kam soni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Har bir okrugdagi xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar soni ushbu notarial okrugdagi notariuslar lavozimlari eng kam sonining uch baravaridan oshmasligi lozim.

Har bir notarial okrugda kamida bitta notarius faoliyat yuritishi shart.

Notarial okrugda notariuslar lavozimlarining eng kam soni notarial okrug notariuslari tomonidan oxirgi uch yilda amalga oshirilgan notarial harakatlarning sonidan kelib chiqib belgilanadi, bunda notarial harakatlarning oylik o‘rtacha soni bir notariusga bir oyda 300-400 ta notarial harakatlar doirasida hisoblanadi.

Notarial okrugda notariuslar lavozimlarining eng kam soni belgilash to‘g‘risidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi va adliya boshqarmalari tomonidan ushbu Nizomning 5-bandi talablaridan kelib chiqib kiritiladi.

Takliflarga quyidagilar ilova qilinadi:

oxirgi uch yilda amalga oshirilgan notarial harakatlar soni;

aholi soni;

notarial idorasi ta'minoti xarajatlarini qoplash imkoniyati;

notarial okrugda notariuslar lavozimlarining eng kam soni to‘g‘risidagi taklifni asoslaydigan boshqa ma'lumotlar.

Notarial okrugda notariuslar lavozimlarining eng kam soni to‘g‘risidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ko‘rib chiqiladi va belgilanadi.

Davlat notarial idoralarida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qarori bilan notariusning yordamchisi, notariusning stajyori, notariusning kotibi va arxivarius lavozimlari joriy etilishi mumkin.

Adliya vaziri O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun notariuslar tomonidan undiriladigan davlat bojidan ajratmalar va notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tusdagi qo‘shimcha harakatlar uchun tushumlar hisobidan davlat notarial idoralarida qo‘shimcha tarjimon, operator, kurer va aholiga notarial va u bilan bog‘liq kompleks xizmatlarni ko‘rsatish uchun boshqa ishchilar shtat birligini kiritishi mumkin.

Har bir davlat notarial idorasi notarius lavozimiga kamida bir birlik notarius yordamchisi va bir birlik notarius kotibi lavozimlari joriy etiladi.

Davlat notarial idoralari stajyorlar va arxivariuslar soni har bir lavozim bo‘yicha respublikadagi davlat notarial idoralari notariuslari umumiy sonining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Yordamchi xodim lavozimlari soni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan davlat boshqaruvi organlari uchun belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi.

Ushbu Nizomning buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Gulnoraxon MATKARIMOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

ISHONCHNOMALARNING MUDDATLARI HAQIDA NIMALAR BILASIZ?

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 134-moddasidan 144-moddasigacha - ishonchnoma, uning shakli, muddati, bekor bo‘lish asoslari qayd etilgan.

Ishonchnoma bu - bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o‘ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko‘rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo‘lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin.

Ishonchnoma oddiy yozma shaklda yoki notarial shaklda rasmiylashtiriladi.

Notarial shaklni talab qiluvchi bitimlarni tuzish yoxud yuridik shaxslarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Gospitallarda, sanatoriylarda va boshqa harbiy-davolash muassasalarida davolanayotgan harbiy xizmatchilarning hamda boshqa shaxslarning shu muassasalarning boshliqlari, ularning tibbiy qism bo‘yicha o‘rinbosarlari, katta va navbatchi shifokorlari tomonidan tasdiqlangan ishonchnomalar ham notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtiriladi.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) bosiladi.

Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olish yoki topshirish uchun beriladigan ishonchnoma shu yuridik shaxsning bosh (katta) buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak.

Ishonchnoma ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o‘z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko‘rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas sanaladi.

Notarius tomonidan tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida harakatlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan, amal qilish muddati ko‘rsatilmagan ishonchnoma uni bergan shaxs tomonidan bekor qilingunicha o‘z kuchini saqlab qoladi.

Ishonchnomaning amal qilishi - quyidagi hollarda bekor bo‘ladi: ishonchnoma muddatining tamom bo‘lishi; ishonchnoma bergan shaxsning uni bekor qilishi; ishonchnoma berilgan shaxsning bosh tortishi; nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to‘xtatilishi; nomiga ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to‘xtatilishi; ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo‘qolgan deb hisoblanishi, yoxud uning vafot etishi va ishonchnoma olgan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomalaga layoqati cheklangan yoki bedarak yo‘qolgan deb hisoblanishi, yoxud uning vafot etishi.

Ishonchnoma bergan shaxs istagan vaqtda ishonchnomani bekor qilishi, ishonchnoma berilgan shaxs esa - undan voz kechishi mumkin. Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo‘lishi bilan uni boshqa shaxsga o‘tkazish ham o‘z kuchini yo‘qotadi.

Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo‘lganidan keyin ishonchnoma olgan shaxs yoki uning merosxo‘rlari (huquqiy vorislari) darhol ishonchnomani qaytarib berishlari shart.

Madiyorbek RAXIMOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

NOTARIAL ISH YURITISH VA HISOBDORLIK

Notarial idoralarda notarial ish yuritishni tashkil etish Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinib, Adliya vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlangan "Notarial idoralarda notarial ish yuritish Qoidalari"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Notarial ish yuritishni to‘g‘ri tashkil qilish uchun notarial idorada rahbarlik qiluvchi notarius javobgardir.

Notarial ish yuritish va (yoki) arxiv ishlarini olib borish davlat notarial idoralarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari rahbarining buyrug‘i bilan notarial idora xodimlaridan biriga, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarda esa notariusning buyrug‘i bilan notariusning o‘ziga yoki xodimlaridan biriga yuklanadi.

Notarial ish yuritish va (yoki) arxiv ishlarini olib borish yuklatilgan shaxs ishdan bo‘shaganda yoki boshqa ishga o‘tkazilganda hujjatlar yangi tayinlangan xodimga dalolatnoma asosida topshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi "Notariat to‘g‘risida"gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq notariusning, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslarning, shuningdek amalga oshirilayotgan notarial harakatlardan xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan xabardor bo‘lib qolgan shaxslarning o‘zlariga ma'lum bo‘lgan axborotlarni oshkor qilishi, shu jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ham oshkor qilishi taqiqlanadi.

Fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko‘ra bitim, ariza yoki boshqa hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganida, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig‘iga ko‘ra imzolagan fuqaro, hujjatni tarjima qilib bergan tarjimon (surdo tarjimon) va boshqalar ham o‘zlariga ma'lum bo‘lgan axborotlarni oshkor qilishi taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" va "Notariat to‘g‘risida"gi qonunlariga muvofiq notarial idoralarda notarial ish yuritish va notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi.

Notarial harakatlar bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjat matni yuridik va jismoniy shaxslarning talablariga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda yoziladi.

Notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan notarial harakatlar "Notariat to‘g‘risida"gi Qonuni va boshqa tegishli qonun hujjatlari talablariga asosan rasmiylashtiriladi.

Notarial idorada ijro qilinishi lozim bo‘lgan barcha hujjatlar, shu jumladan, arizalar belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Notarial idoralarda hujjatlarni ro‘yxatga olish va ularning ijrosini nazorat qilish uchun "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalaniladi.

Ro‘yxatga olingan hujjatlarning birinchi betida (chap tomon pastki qismida) notarial idoraning shtampi bosiladi hamda hujjatning kirim raqami va uning qabul qilingan sanasi yoziladi.

"Notariat to‘g‘risida"gi Qonunining 10-moddasiga asosan, notarial idora notarial ish yuritish hujjatlari va materiallarining but saqlanishini ta'minlashi, o‘z notarial arxiv ishini yuritishi shart.

Notarial ish yuritish hujjatlari va materiallari uch yil o‘tgach notarial arxivlarga topshirilishi kerak.

FarxadAKBAROV,
Jalaquduq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

NOTARIAL TASDIQLANGAN HUJJATLARGA TENGLASH TIRILGAN VASIYATNOMALAR VA ISHONCHNOMALARNI TASDIQLASH TARTIBINI BILASIZMI?

Mansabdor shaxs voyaga yetgan shaxslarning murojaatiga binoan ularning vasiyatnomalari, ishonchnomalari va arizalarini tasdiqlaydi. Mazkur hujjatlarni tasdiqlashda mansabdor shaxs murojaat qiluvchilarning shaxsini, shuningdek fuqarolarning muomala layoqatini aniqlaydi.

Mansabdor shaxs murojaat qiluvchilarning shaxsini quyidagi hujjatlarga asosan aniqlaydi:

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, haydovchilik guvohnomasi, ID-kartasi;

harbiy xizmatchilarning shaxsi - harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar yoxud ID-kartalar;

chet el fuqarolarining shaxsi - ularning milliy pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi, ID-kartasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartochkasi;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning shaxsi - O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki ID-karta.

Mansabdor shaxsda murojaat qiluvchining ruhiy holatining buzilganligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z xatti-harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydi yoki shu harakatlarni boshqara olmaydi deb yoxud spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishi oqibatida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yadi deb hisoblash uchun asosi bo‘lsa-da, ammo shu fuqaroning muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi to‘g‘risida ma'lumotlar bo‘lmasa, u vasiyatnomani, ishonchnomani yoki arizani tasdiqlashni kechiktiradi va sudning shu fuqaroni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topganligi to‘g‘risidagi qarori bor-yo‘qligini aniqlaydi. Agar mazkur fuqaro sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, mansabdor shaxs notarial harakatni amalga oshirishni rad etadi. Agar mansabdor shaxsning ushbu harakatidan murojaat qiluvchi norozi bo‘lsa, mansabdor shaxs uning ustidan shikoyat qilinishi mumkinligini tushuntiradi.

Agar mazkur fuqaro sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan bo‘lsa, mansabdor shaxs notarial harakatni amalga oshirishda muomala layoqati cheklangan shaxs homiysining roziligini talab etadi.

Hujjatni tasdiqlashdan oldin mansabdor shaxs hujjat loyihasini ovoz chiqarib o‘qib beradi yoxud murojaat qiluvchining o‘zi uni o‘qib chiqadi. Agar vasiyat qiluvchi yoki ishonch bildiruvchi hujjat loyihasining matniga rozi bo‘lsa, u mansabdor shaxs ishtirokida uni imzolaydi.

Agar murojaat qiluvchi jismoniy nuqsoni, kasalligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko‘ra vasiyatnomani, ishonchnomani yoki arizani o‘z qo‘li bilan imzolay olmasa, uning topshirig‘iga ko‘ra uning o‘zi va mansabdor shaxs hozirligida boshqa fuqaro imzolashi mumkin, bunda vasiyatnoma yoki ishonchnomani tasdiqlashni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganligi sabablari hujjat matnida va tasdiqlovchi yozuvida ko‘rsatilishi hamda hujjatlarni imzolash jarayoni majburiy audio va video qayd etilishi lozim.

Quyidagi shaxslar vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani imzolashi mumkin emas:

mansabdor shaxs;

vasiyatnoma kimning foydasiga tuzilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs, uning eri (xotini), bolalari, ota-onasi, nevaralari va chevaralari, shuningdek vasiyat qiluvchining qonun bo‘yicha merosxo‘rlari;

to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmagan fuqarolar;

savodsiz bo‘lgan shaxslar va vasiyatnomani o‘qiy olmaydigan boshqa shaxslar;

yolg‘on guvohlik berganlik uchun muqaddam sudlangan shaxslar.


Mansabdor shaxs ishonch bildiruvchining yoki ariza beruvchining o‘rniga ishonchnomani imzolashi man etiladi.

Lutfillo TURDIKULOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

INSON

(hikoya)

Ulviy BUNYODZODA



Keksa faylasuf sohil bo‘yidagi xiyobonda dengizga yaqin qo‘yilgan o‘rindiqlardan birining yonida to‘xtadi. Barmoqlari bilan oq, jingalak sochlarini tarab, bilinar-bilinmas xo‘rsindi. Ko‘zlari noma'lum nuqtaga qadalgancha qotdi. Keyin "Eh dunyo, dunyo" degancha o‘rindiqqa cho‘kdi.

U mashhur olim, dunyoga dong‘i ketgan akademik edi. Jamiyatni taraqqiy ettirish borasida dohiyona fikrlari ila elga tanilgan, jild-jild kitob va darsliklar yaratgan edi. O‘g‘il-qizlari ham ota izidan borib, ilm yo‘lini tanlagan edilar. U hammaning nazarida baxtiyor inson edi.

Keksa faylasuf hammaga o‘xshab fikrlamasdi. Hozir ham dengizga termilgancha, bosib o‘tgan yo‘li, dunyoi dunning o‘tkinchi va bevafoligi haqida o‘y surmoqda edi.

- Amaki, Xudo yo‘liga xayr qiling!

Keksa olimning qarshisida yetti-sakkiz yoshlar chamasidagi yupun kiyingan bir bola qo‘l cho‘zib turardi.

Olim avval nima qilarini bilmay turdi. Bolani quvib yuborishni ham, besh-to‘rt tanga sadaqa berib jo‘natishni ham bilmasdi. Nogoh bu go‘dak bilan suhbatlashish, uni bu noloyiq, yo‘ldan qaytarish fikri tug‘ildi.

- Bu yoqqa kel, bolam! O‘tir yonimga.

Bola indamay uning aytganini qildi.

- Oting nima?

- Inson.

- Nima? Shunaqa ism ham bo‘larkanmi?

- Bilmasam.

- Bu ismni senga kim qo‘ygan? Inson o‘zini bunchalar yerga urmasligini aytmaganmi onang?

- …

Qariyaning kayfiyati buzildi. U suhbati qo‘r olmasligini anglab, bolaning javobini berish uchun cho‘ntak kovladi. Aksiga olib, mayda topolmadi. Keyin gunohkor qiyofada bolaning yuzlariga tikildi. Uning nigohlari loqayd edi. Ketish uchun o‘rnidan turdi. Biroq, keksa faylasuf bolani quruq qo‘l bilan qaytarishni istamasdi. Hamyonini chiqarib, o‘n manatlik tutqazdi.

- Anavi muzqaymoq sotayotgan ayolga obor, maydalab bersin. Bir manatini o‘zingga opqolasan. Qolganini opqochib ketmassan, har qalay?

- Opqochib ketaman!

Qariyaning jahli chiqib, pul tutgan qo‘lini tortib oldi. Hayrat bilan bolaning ko‘zlariga tikildi. Bolaning qiyofasidagi avvalgi befarq ifoda yo‘qolmagandi.

- Bo‘lmasa, bor, ishingni qil, Inson!

Bola qimirlamay turaverdi. Qariyaning g‘ashi keldi. Bolani so‘kib, haydamoqchi bo‘ldi. Uning ko‘zlarida allaqanday mavhum bir uchqun chaqnab turardi. Bu uchqun qariyaning ham ko‘ngliga nedir qo‘r solgandek bo‘ldi. Fikridan qaytdi. Hamon qo‘lida tutib turgan pulni yana bolaga uzatdi, bu gal muloyimlik bilan gap qotdi:

- Mayli, bolam, olaqol. Hammasi senga!

Bola pulni olib, qariyadan uzoqlashdi. Olim anchagacha fikrini bir joyga jamlolmay turdi. Qiziq, bolaning nimasi uni o‘ziga buncha bog‘lab oldiykin? Nega uning yuragi birdan bu qadar yumshab ketdi? Bu marhamat hissimidi yoki g‘azab? Kimdan, nima uchun g‘azablanishi kerak? U bolani darrov jo‘natvorganidan xiyla afsuslandi. O‘ngu so‘liga qayrilib qaradi. Bola ko‘rinmasdi. Keyin yana boshini egganicha o‘zining xayoliy olamiga g‘arq bo‘ldi.

…Ko‘p o‘tmay, qadam tovushlaridan sergaklanib, boshini ko‘tardi. Qarshisida boyagi bolakay turardi. Avvaliga quvondi, keyin taajjublandi. Yana bir lahzadan so‘ng ich-ichdan g‘azab toshgandek bo‘ldi. Bolaga qarab baqirib berdi:

- Ha? Yana nimaga kelding? Tinchgina o‘tirgani qo‘yasanmi, yo‘qmi?

Qariya zarda bilan turib ketmoqchi bo‘ldi. Bolakay qo‘lini nimdosh shimining cho‘ntagiga solib, boyagi o‘ntalikni chiqardi va qariyaga uzatdi:

- Mang, amaki, oling pulingizni!

Keksa faylasuf hayratdan qotib qoldi.

- Nega? - so‘radi past ovozda.

- Oyim "Oborib ber, bu odamning puli bizga kerakmas, o‘ziga kafanlik olsin", dedilar.

- Onang qani? - qariyaning yuragi muzlab ketgandek bo‘ldi. O‘rnidan turmoqchi edi, beli zirqirab ketdi.

- Ana, ketyaptilar-ku!

- Bor, tez borib, onangni qaytarib kel! - dedi qariyaning hayajondan nafasi bo‘g‘ziga tiqilib.

- Kelmaydilar, oyim sizni qarg‘adilar-ku!

- Onangni oti nima?

- Nargiz.

"Nargiz" - faylasuf xayolga toldi. Nargiz! Bu ism faylasufning, vijdonidagi qora dog‘ misol muhrlanib qolgan.

…Sakkiz yil ilgari hech kimi yo‘q, uzoq qishloqdan kelgan bir qiz o‘g‘lining to‘riga ilinib qolgandi. Albatta, o‘g‘li ham bir oz yoshlik qilgan, hirsini jilovlay olmagan. Qizning bo‘yida bo‘p qolgan… Ish hatto sudlashishgacha borib yetdi. "Adolat" sudining "adolat"li qozisi mashhur faylasufning hurmati yuzasidan, nozik odamlarning aralashuvi tufayli "odilona" qaror chiqardi. Nargiz hurmatli bir oilaning nomiga isnod tushirgani, tuhmat qilgani uchun bir yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi.

…Keksa faylasuf sud hukmini qayta tinglayotgandek bo‘ldi. U seskanib, boshini ko‘tardi. Bola onasining orqasidan ketib borardi.

- Inson! - Keksa faylasufning ovozi sohil bo‘ylab yoyildi.

Bola orqasiga o‘girilib qaradi. Lekin yo‘lidan qaytmadi. Qariyaning nazdida bola bilan birga yuragining bir parchasi uzilib borayotgandek bo‘ldi. U ona-bolani orqaga qaytarish uchun hamma narsaga hozir edi. Lekin, Nargizdan ham, Insondan ham u ancha ilgari, bundan sakkiz yil muqaddam o‘z INSONligini yo‘qotgan damdayoq judo bo‘lgan edi.

Inson uning kelajagi edi. U kelajagini yo‘qotgandi. Xo‘sh, uning o‘rniga nima topdi? Keksa faylasuf yana qo‘llari bilan oq sochini taradi. O‘ng qo‘lida turgan o‘ntalik kaftini xuddi cho‘g‘dek kuydirardi…

Ozarboyjon tilidan Rustam JABBOROV tarjimasi

MEROSXЎRЛАР DIQQATIGA!

Andijon shaxri, U.Юсупов kўchasi, 120-uyda yashab, 2024 yil 20 iyun kuni vafot etgan marxum **SALIYEV RUSTAMJON AXMADJANOVICH**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Andijon shaxri, A. Temur shox kўchasi, 1/A-uyda joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius K.Sh.Jalolиddinov notarial idorasiga,

Andijon shaxrida yashab, 2024 yil 23 yanvar kuni vafot etgan marxum **MAMAJANOV ZAKIRJON**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Andijon shaxri, Bobur shox kўchasi, 30/A uyda joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius I.A.Uzakbaev notarial idorasiga,

Andijon shaxrida yashab, 2023 yil 2 avgust kuni vafot etgan marxum **RASULOV ERKINJAN KAMILOVICH**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Andijon shaxri, Миллий kўchasi, 27-uyda joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius T.U.Arzikulov notarial idorasiga,

Andijon tumani, Ўrikzor MFЙ, Obod diёr maxalласida yashab, 2006 yil 17 iyul kuni vafot etgan marxum **IBRAGIMOV ULUғBEK**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Andijon tumani, Baxt MFЙ, Oltin водiy kўchasida joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius A.Қ.Fulomjonov notarial idorasiga,

Jalaқuduқ tumanidagi uyda yashab, 2015 yil 17 yanvar kuni vafot etgan marxum **KAZIMIROV SAID,**

Jalaқuduқ tumanidagi uyda yashab, 2024 yil 11 oktябr kuni vafot etgan marxum **ABLAZOV ZAKIRJON ASTANOYEVICH**larning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Jalaқuduқ tumani, Uzbekiston kўchasi, 57-uyda joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius F.N.Akbarov notarial idorasiga,

Izboskan tumani, Shodlik MFЙ, Z.M.Bobur kўchasi, 78-uyda yashab, 2024 yil 5 iyun kuni vafot etgan marxuma **GANIEVA XIDOYaTXON**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Izboskan tumani, Nақшband kўchasi, 103 uyda joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius D.S.Xatamova notarial idorasiga,

Marxamat tumani, Durafshon MFЙ, Shukurmerган kўchasidagi uyda yashab, 2023 yil 22 fevral kuni vafot etgan marxum **XAIDAROV MAXMUDJON KARIMOVICH**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Marxamat tumani, Bobуршox kўchasi, 38 uyda joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius A.T.Usmonov notarial idorasiga,

Marxamat tumani, Xўжаарiқ MFЙdagi uyda yashab, 2016 yil 29 noябрь kuni vafot etgan marxum **OMONOV ABDUNAZAR NASIROVICH**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Marxamat tumani, Mustaқillik kўchasi, 114-uyda joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius B.I-.Alиev notarial idorasiga,

Pahtaobod tumanida yashab, 2024 yil 2 sentябrь kuni vafot etgan marxum **ABDULXAKIMOV SADIRDIN SHODMONBEK ўғli,**

Pahtaobod tumanida yashab, 2017 yil 4 avgust kuni vafot etgan marxum **MIRZAAXMEDOV RAXIMJON,**

Pahtaobod tumanida yashab, 2024 yil 12 fevral kuni vafot etgan marxum **MAMAJONOV AXRORIDIN ALIShEROVICH**larning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumlarning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Pahtaobod tumani, Muazzinboй MFЙ, Oltin йўl kўchasida joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius X.A.-Raxmonov notarial idorasiga,

Pahtaobod tumani, Sanoat MFЙda yashab, 2020 yil 4 avgust kuni vafot etgan marxum **TURAEV XOMIDJON XASANOVICH**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumlarning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Pahtaobod tumani, Obod diёr kўchasida joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius M.Ў.Tўychiboev notarial idorasiga,

Shaxrixon tumani, Navbaxor MFЙda yashab, 2022 yil 16 iyulda vafot etgan marxum **SULTONBOЙ USMONOV**ning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, tegishli xujjatlari bilan Shaxrixon tumani, R.Ёdgorov kўchasida joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius A.Axmadjonov notarial idorasiga,

Shaxrixon tumani, Namozgox MFЙda yashab, 2021 yil 4 martda vafot etgan marxum **RUSTAMJON ERGASHEV,**

Shaxrixon tumani, Poloson MFЙda yashab, 2003 yil 16 sentябrda vafot etgan marxum **ABDULXAKIM AZIZOV,**

Shaxrixon tumani, Ortiш MFЙda yashab, 2008 yil 28 yanvarda vafot etgan marxum **DADAXON TЎЙChIEV**larning meros mulkларiga nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumlarning meroskўrlari va manfaatdor shaxslarni eълон chiққan kundan boshlab, tegishli xujjatlari bilan Shaxrixon tumani, R.Ёdgorov kўchasida joylashgan xususiy amaliёt bilan shuғullanuvchi notarius A.Mamatov notarial idorasiga murojaat қilishlari sўralади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo‘limida terilda va sahifalandi.
«Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 14.03.2025 yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 14.03.2025 yil, soat 14.00
Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №0000134. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li